

ONA TILI

1. Imloviy jihatdan xato yozilgan soʻzlarni toping.  
A) *xotirjam, hunarmand* B) *eʻtiqod, kamolot*  
C) *intiluvchan, ilhombaxsh*  
D) *gʻaloyon, taffakur*
2. Qaysi javobda ajratib yoziladigan soʻzlar berilgan?  
A) *omma//bop, qoʻzi//qorin*  
B) *izzat//talab, Yangi//yoʻl*  
C) *qoʻl//qop, xush//manzara*  
D) *shirindan//shirin, har//vaqt*
3. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bogʻliq xatolik mavjud emas?  
A) *Safsata ham quruq gap ham – nafratga loyiq.*  
B) *Kimga pand-u nasihat qilsang – unga avvalo, oʻzing amal qil.*  
C) *Inson chiroyli axloqi, hamda ezgu amallari bilan goʻzal.*  
D) *Inson, albatta, oʻz maqsadi sari sabot va matonat bilan intilmogʻi lozim.*
4. Qaysi gapdagi ajratib koʻrsatilgan soʻz koʻchma maʼnoda qoʻllangan?  
A) *Vodoprovod yonidagi oshrayhondan bir shox sindirib olib kaftiga urdi.*  
B) *Muz tagida erkalanib oqayotgan suvga biroz tikilib turdim.*  
C) *Endigina tugʻilgan qoʻzichoq oyoqda zoʻrgʻa turardi.*  
D) *Respublikamizda oltin zaxirasi yildan yilga koʻpaymoqda.*
5. Qaysi javobdagi ajratib koʻrsatilgan soʻz “tez” soʻzi bilan oʻzaro maʼnodoshlik hosil qila olmaydi?  
A) *jizzaki odam* B) *koʻp oʻylamoq*  
C) *jadal harakatlanmoq* D) *yaqin kunlarda*
6. Berilgan qaysi gapda tushum kelishigi qoʻshimchasining nooʻrin qoʻllanishi uchraydi?  
A) *Shuning uchun ham Xayriddin Sulton: "Bobur insonlarni ichida eng rostgoʻyidir", – deb yozgan edi.*  
B) *Ular ham meni Hind sari chorlaydirlar, mamlakatni obod qilishni oʻylaydirlar.*  
C) *Oʻn bir yoshidan soʻng unga Ramazon hayitini ikki marta bir yerda kutib olish nasib etmagan.*  
D) *Boburning betakror shaxsiyati butun dunyo ahlini qiziqtirib kelgan.*
7. Qaysi gapdagi koʻp nuqta oʻrnida qaysar soʻzini qoʻllash uslubiy jihatdan toʻgʻri emas?  
A) *Uning ... feʻl-atvorini bilganimiz uchun indamay qoʻya qoldik.*  
B) *Bu ... yigitni soʻzidan qaytarish mushkul edi.*  
C) *Oʻrtoqlariga ... soʻz aytgan Ilhomjondan hamma xafa boʻlgan edi.*  
D) *... daryo qirgʻoqdan toshib chiqquday boʻlar edi.*
8. Qaysi javobda sifatning faqat bir maʼno turi qoʻllangan?  
A) *Tilimiz dagʻalroq, lekin juda boy, unda ohori toʻkilmagan ertak, doston va qoʻshiqlar koʻp.*  
B) *Kech kuz boʻlsa ham, havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Atrof oq, sariq, yashil yaproqlar bilan yanada chiroyli koʻrinardi.*  
C) *Qizning oqish yuzlarida ajib bir qizillik paydo boʻldi.*  
D) *Men ularning bittasidan oppoq qoʻziqorin, yana bittasidan barra bodring soʻragan boʻlardim.*

9. Qaysi gapda bilan ko'makchisi o'zi bog'lanib kelgan so'zga "**birgalik**", "**hamkorlik**" ma'nolarini yuklagan?
- A) Qiz allaqanday qo'shiqni past ovozda, ammo zavq bilan kuylardi.
- B) Hovlida oppoq gilamdek to'shalib yotgan qorni ukalarim bilan birpasda kurab qo'ydik.
- C) Chol ko'cha eshikni qo'lidagi hassasi bilan turtib ochdi.
- D) Nafisa yozi bilan qishloqdagi buvisinikida yurdi-yu, uylariga kuzda qaytdi.

10. *Oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki kasb-hunari bo'lmagan odam kambag'aldir.*
- Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni toping.
- A) bog'lovchisiz qo'shma gap  
B) bog'langan qo'shma gap  
C) ergashgan qo'shma gap    D) sodda gap